NEOLOGIZMLAR VA ULARNING ZAMONAVIY O'ZBEK TILIDA PAYDO BO'LISH TENDENSIYALARI.

Mahmudova Dildora Sobirjon qizi
Andijon davlat chet tillari instituti
Filologiya va tillarni o'qitish arab tili 102-guruh
Ilmiy maslahatchi: **Sadoqatoy Bahodirovna**
https://doi.org/10.5281/zenodo.24275504

Annotatsiya: Ushbu maqolada neologizmlar, ularning til taraqqiyotidagi o'rni va bugungi kundagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy jamiyatda yangi so'zlarning paydo bo'lish sabablari, neologizmlardan foydalanishning afzalliklari hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar yoritiladi. Globallashuv jarayonida neologizmlarning til leksik tarkibiga ta'siri ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: neologizm, til taraqqiyoti, leksik boylik, yangi so'zlar, o'zlashma so'zlar, globallashuv, so'z yasalishi, lingvistik jarayonlar, zamonaviy tendensiyalar.

Аннотация: В данной статье анализируются неологизмы, их роль в развитии языка и значение в современном мире. Также рассматриваются причины появления новых слов в современном обществе, преимущества использования неологизмов и возможные проблемы, которые могут возникнуть в процессе их употребления. Кроме того, исследуется влияние неологизмов на лексический состав языка в условиях глобализации.

Ключевые слова: неологизм, развитие языка, лексическое богатство, новые слова, заимствованные слова, глобализация, словообразование, лингвистические процессы, современные тенденции.

Abstract: This article analyzes neologisms, their role in language development, and their significance in the modern world. It also examines the reasons for the emergence of new words in modern society, the advantages of using neologisms, and the potential problems that may arise. Furthermore, the influence of neologisms on the lexical composition of a language in the context of globalization is explored.

Keywords: neologism, language development, lexical richness, new words, borrowed words, globalization, word formation, linguistic processes, modern trends.

Hozirgi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari davrida tilimiz kundan kunga boyimoqda. Buning turli xil sabablari mavjud. Masalan, nutqimizda o'zlashma so'zlarning bo'lishi chet mamlakatlari bilan faol tashqi aloqalarni bildiradi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar yoki har xil texnologiyalar orqali ham neologizmlar nutqimizga kirib keladi. (Neologizm — bu tilga yaqinda kirib kelgan yoki yangi yaratilgan so'z, ibora yohud mavjud so'zning yangi ma'nosi. Neologizmlar tilning jonli va doimiy rivojlanib boruvchi tabiatini aks ettiradi. Neologizm so'zi yunoncha ikki o'zakdan tashkil topgan: néos — "yangi" va lógos — "so'z".) Yangi so'zlar tilimizni yanada zamonaviy va tushunarli bo'lishiga hissa qo'shadi. Chunki agar bunday terminlardan foydalanilsa chet el vakillari ham ularni oson tushunadi. Shu tufayli o'zlashgan so'zlarni rasmiy badiiy ijtimoiy nutqlarda keng qo'llash mumkin. Lekin bu so'zni konteksga qanchalik mosligini inobatga olish katta ahamiyat kasb etadi.

Neologizmlarning bir qancha turlari mavjud:

1. Ichki imkoniyatlar asosida yasalgan so'zlar. Bunda so'zga turli xil qo'shimchalar qo'shish orqali uni o'zlashtiriladi. Bu affiksatsiya deyiladi. Masalan, raqamlashtirish, blogerlik, kontentchi kabi so'zlar.

2. O'zlashma neologizmlar. Ular, asosan, eng taraqqiy etayotgan tillardagi so'zlar hisoblanadi. Masalan, rus va ingliz tilidagi so'zlar. (Aslini olganda, neologizmlarning 70-80 foizi ingliz tilidan kirib kelgan.)

3. Aralash neologizmlar. (Kalkalash usuli) Ular xorijiy va mahalliy tildagi so'zlarning kompozitsiyadan hosil bo'ladi. Onlayn-dars, sun'iy intellekt, media-loyiha kabi so'zlarni olsak bo'ladi.

4. Semantik neologizmlar. Bunday so'zlar tilimizda oldindan mavjud bo'lgan lekin hozirda boshqa ma'nolarni ham ifodalaydigan terminlardir. Tarmoq, sichqoncha kabi so'zlar hozirda o'z ma'nosi bilan birga axborot tarmog'i va kompyuterning asosiy qurilmasi ma'nolarni ham aks ettiradi.

Bunga qo‘shimcha ravishda ommaviy axborot vositalari (OAV) axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) kabi so‘zlar tilimizga davr talabi asosida tabiiy kirib kelgan. Bu kabi so‘zlar ko‘p hollarda muloqotda qulay va tushunarli bo‘lishi mumkin.

Lekin biror so'z yangi so'z sifatida qabul qilinishi, o'zbek tili izohli lug'atiga qo'shilishi uchun bir necha talablar mavjud. Birinchidan u faqat aholining ma'lum qatlami tomonidan emas, balki butun jamiyatda iste'molga kiritilgan bo'lishi zarur. Agar avtorial neologizmlarni oladigan bo'lsak, ular faqat muayyan yozuvchi yoki ijodkor tomonidan kiritilgan so'zlar bo'lganligi tufayli u so'zlarning tendensiyasi va aholini barcha qatlamlari tomonidan tushunilish darajasi yuqori emas. Shuning uchun yangi so'zlar, avvalo, o'zlashuvda qo'llashga mos va hamma uchun tushunarli bo'lishi lozim. Shu bilan birga, ular kamida besh yil iste'molda qo'llanilgan ya'ni yo'qolib ketish xavfi past bo'lgan muntazam qo'llaniluvchi so'zlar bo'lishi kerak.

Endi neologizmlarni ishlatishning afzalliklari va kamchiliklariga to'xtalamiz. Birinchi navbatda, yangi so'zlar til taraqqiyotining yaqqol belgilaridan biridir. Til qanchalik keng qamrovli bo'lsa, bu davlatning ijtimoiy siyosiy iqtisodiy aloqalarida o'z ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, jahon tillaridagi so'zlardan foydalanilgan holda diplomatik aloqalarni olib borish yoki tarjimon ikkala tomon uchun ham qulay va tushunishga oson bo'lishi mumkin. Buning natijasida, til tafovutlari kamayadi. Shu bilan birga, agar o'zlashma so‘zlarning tarjimasi mavjud bo‘lmasa yoki u boshqa tilga o‘girilganda ma’noga putur yetsa, neologizmlarni qo‘llash qulay va tushunarli bo‘lishi mumkin. Lekin rasmiy jarayonlarda yangi so‘zlardan foydalanish tilning sofligiga ziyon yetkazishi mumkin, shuning uchun rasmiy jarayonlarda yangi so‘zlardan va qisqartmalardan me’yordan ortiq foydalanmaslik talab etiladi . Shunga qaramasdan, neologizmlarni qo‘llashda o‘sha so‘zni asl ko‘rinishida yoki boshqa tilga moslashgan holda yozish bo‘yicha ikkilanish paydo bo‘ladi. Natijada, imloviy xatolar qilish ehtimoli oshadi. Masalan podkast, frilanser, startap kabi so‘zlari ba’zi bir hollarda noto‘g‘ri yozilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda ,neologizmlarni qo‘llashning hayotimizda tutgan o‘rni beqiyos bo‘lsa-da, ularni qo‘llashda ehtiyotkorlik talab etiladi. Yangi so‘zlar uchun doimiy yangilanib turadigan elektron neologizmlar lug‘atini yaratish, yangi o‘zlashmalar uchun milliy muqobil izlashda faol leksika, qardosh turkiy tillar tajribasi va so‘z yasash vositalaridan foydalanish kabi islohotlary amalga oshirilishi orqali turli xil tushunmovchiliklar kelib chiqishini olish va neologizmlarni keng qamrovli qo‘llash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. — Toshkent: Talqin, 2005.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2002.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006–2008.
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. — Toshkent: Universitet, 2006.